

**IJTIMOY TARMOQ BRAUZERLARI*****Alimova Nozima Raximjonovna****To 'raqo 'rg 'on tuman 1-son politexnikumi Maxsus fan o 'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Brauzer internetga kirish uchun ishlataladigan dastur bo'lib, web-saytlarga kirish va ular ichida maqolalar o'qish, multimedia ko'rish, bir saytdan boshqasiga bog'lanish, chop etish, elektron habarlarni yuborish va qabul qilish singari amallarni bajarish imkonini yaratadi. Ayni shu jihatdan ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqdagi brauzerlar va ularning xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoq, brauzer, vep-brauzer, oflays aloqa, vkontakte, media omborlari, programma, Opera, Google, internet.

Ijtimoiy tarmoq – bu qiziqishlari o'xshash yoki oflays aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar (musiqa va filmlar) va ish maqsadlarida ishlataladigan onlayn platforma hisoblanib, uning quyidagi turlari mavjud:

Ijtimoiy xatcho'plar (inglizcha: social bookmarking). Ba'zi veb-saytlar foydalanuvchilarga xatcho'plar yoki mashhur veb-saytlar ro'yxatini boshqalar bilan baham ko'rish imkonini beradi. Bunday saytlardan umumiy qiziqishlarga ega foydalanuvchilarni topish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan: Delicious, Pinterest

Ijtimoiy kataloglar (inglizcha: social cataloging) ijtimoiy xatcho'plarga o'xshaydi, lekin akademik maqsadlarga qaratilgan bo'lib, foydalanuvchilarga ilmiy maqolalardan olingan iqtiboslarning ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun qulaydir. Masalan: Academic Search Premier, LexisNexis, Akademik universitet, CiteULike, Connotea.

Ijtimoiy kutubxonalar – bu sayt mehmonlariga o'zlarining to'plamlari, kitoblari, audio yozuvlari va boshqalarga havolalarni qoldirish imkonini beruvchi ilovalardir. Tizimni qo'llab-quvvatlovchi tavsiyalar, reytinglar va boshqalar ko'zda tutilgan. Masalan: discogs.com, IMDb.com.

Ijtimoiy media omborlari – media fayllarni birgalikda foydalanish uchun saqlash xizmati bo'lib, ularni ushbu serverlarda joylashgan fayllar turiga qarab tasniflash imkoniyati mavjud.

Bugungi kunda asosan, yoshlar feysbuk, telegram, odnoklassiki, instagram, tvitter, vkontakte kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishmoqda. Bularning ichida feysbuk, telegram, tvitter va instagram juda ommalashdi. Aslida ijtimoiy tarmoqlar ilk bor 1995 yilda paydo bo'lgan. Rendi Konrad ismli shaxs Classmates.com saytini ishga tushiradi. Dunyoning turli burchaklarida ta'lim olayotgan yoshlar bir-biri bilan

tanishishi, do'stlar o'zaro bir-birini topib, hol-ahvol so'rab turishlari uchun mazkur sayt tashkil etilgan edi. Bu sayt o'sha paytda talabalar, yoshlar tomonidan qiziqish bilan kutib olingan.

Ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda ulardan foydalanuvchilar soni ham ko'paydi. Bugungi kunda saytlarga kiruvchi, internetdan foydalanuvchilarning uchdan ikki qismi mazkur tarmoqlardan foydalanadi.

Veb yorituvchi yoki bräuzer (inglizcha: Web browserdan) – qidirish, veb-saytlarni ko'rib chiqish (asosan, WWWdan), ular bilan ishlash, kiritish va bir sahifadan ikkinchisiga o'tish uchun mo'ljallangan programma ta'minoti. Brauzer internetga kirish uchun ishlatiladigan dastur bo'lib, web-saytlarga kirish va ular ichida maqolalar o'qish, multimedia ko'rish, bir saytdan boshqasiga bog'lanish, chop etish, elektron habarlarni yuborish va qabul qilish singari amallarni bajarish demakdir.

Mashhur brauzerlar sifatida Mozilla Firefox, Opera, Flock, Internet Explorer, Maxthon – Internet Explorer asosida yaratilgan, Safari – Konqueror kodiga asoslangan, Google Chrome – Google shirkatining brauzeri, Microsoft Edge – Microsoft kompaniyasining brauzerini keltirish mumkin. Unchalik ommalashmagan brauzerlarga Netscape Navigator, Konqueror, Galeon, Epiphany, Kazehakase, Charon, Arachne, K-Meleon, slimbrowser kabilarni aytishimiz mumkin. Brauzerlar orasida tekstli brauzerlar ham foydalanuvchilar tomonidan ko'p ishlatiladi, ularga Lynx, Links, W3M, Netrik, Elinksni kiritish mumkin. Internet Browserlarining Oflayn turiga HTTrack, Offline Explorer, Teleport Pro, WebZipni misol qilishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi raqamlashgan texnologiyalar asrida foydalanish uchun ko'plab alternativ brauzerlar ommalashib ulgurgan. Shulardan biri sifatida - Googl qidiruv tizimini aytishimiz mumkin. Ushbu qidiruv tizimida foydalanuvchilar o'zlariga kerakli matnni kiritish orqali qidiruv sistemalari vositasida yozilgan matn uchragan saytlar ro'yhati ko'rsatib beriladi. Qidiruv sistemalari internet tarmog'iga kiritilib, qidiruv tizimlari ro'yhatidan o'tgan saytlar ichidan kerakli axborotlarni qidiradi. Bu kabi tizimlarga misol tariqasida Google, Yandex, Yaho, Mailru kabilarni kiritish mumkin. Tadqiqotlar va tadqiqotlarga ko'ra, yana bir nechta asosiy statistik ma'lumotlar 4,48 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisining atigi 1,32 foizi platformalarga to'liq ish stoli orqali kirishadi, 99 foizi mobil qurilma orqali veb-saytlar yoki ilovalarga kirishadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G'ulomov S.S. va boshqalar "Axborot tizimlari va texnologiyalari". Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. - T: "Sharq", 2000.
2. Raximov N.O. Intellektual o'qitish tizimlarida bilimlarni ifodalash modellari // TATU xabarlari. – Toshkent. №4. 2010.
3. Kadirov M.M. "Axborot texnologiyalari" fanidan o'quv qo'llanma. 1-qism. - T.:«Sano-standart» nashriyoti, 2018.

4. Брусиловский П.Л. Интеллектуальные обучающие системы. // Информатика. Наука-технический сборник. Киев, 1990. № 2.
5. www.mavdoo3.com
6. www.ziyo.uz

